

DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL QILISH

Maloxat Esonova Akilovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti dotsenti

Karimova Anasposho Xasan qizi

Qo`qon Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati va uning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga jalb etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda Reggio Emilia pedagogikasi yondashuvining inklyuziv ta'limdagi o'rni ham ko'rsatib berilgan. Natijada inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlarning ahamiyati aniqlangan.*

Tayanch iboralar: *inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, ta'lim tizimi, pedagogik yondashuv, integratsiya, teng imkoniyat, ta'lim sifati, Reggio Emilia pedagogikasi*

Аннотация: *В данной статье раскрывается сущность инклюзивного образования и его значение в современной системе образования. Проанализированы основные принципы инклюзивного образования, а также вопросы включения детей с ограниченными возможностями в общий образовательный процесс. Рассмотрены проблемы, возникающие на практике, и пути их решения. Также показана роль педагогического подхода Reggio Emilia в инклюзивном образовании. В результате исследования определена важность эффективных педагогических подходов для развития инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, система образования, педагогический подход, интеграция, равные возможности, качество образования, педагогика Reggio Emilia*

Annotation: *This article discusses the essence of inclusive education and its importance in the modern education system. The main principles of inclusive education and the inclusion of children with special needs into the general educational process are analyzed. Practical challenges and ways to address them are also considered. The role of the Reggio Emilia pedagogy in inclusive education is also highlighted. The study emphasizes the importance of effective pedagogical approaches for the development of inclusive education.*

Keywords: *inclusive education, children with special needs, education system, pedagogical approach, integration, equal opportunities, quality of education, Reggio Emilia pedagogy*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi PF-152

sonli farmoni qabul qilindi. Farmonda maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limni uzliksizligi va uzviyligini ta'minlash, maktabgacha ta'limni sifat va samaradorligini yanada oshirish, ta'lim jarayoniga innovatsiyalar hamda ilg'or pedagogik raqamli texnologiyalarni joriy etish haqida ko'rsatib o'tildi. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetentsiyalarni shakllantirish ko'zda tutilgan. Xususan farmonga ko'ra umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish va rag'batlantirish mehanizmlarini joriy etish belgilangan bo'lib, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish va rag'batlantirish mehanizmlarini joriy etish yuzasidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilandi.

Inklyuziv ta'lim va tarbiya- bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini va hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olish uchun teng imkonoyatlarni ta'minlovchi jarayon. Ta'lim to'g'risidagi qonunning (O'RQ 637.23.09.2020) 20-moddasida aytib o'tilganidek inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni (inklyuziv ta'lim)

Davlat o'quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, rivojlanish va muloqotda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolani ta'lim olish va rivojlantirishni qo'llab quvvatlash – bu MTT ning direktori, pedagog va mutaxassislar tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish.

Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi. Uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning ta'lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki vafarovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan o'quv muhiti, o'qitish usullarini moslashtirish zarur.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida guruhlar quidagi miqdorda to'ldiriladi:

1) uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun guruhlarida – ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan ikki yoshdan uch yoshgacha ko'pi bilan uch nafar bola;

2) uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarida – ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan (yaxshi ko'ra olmaydigan

yoki yaxshi eshita olmaydigan yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan)ko'pi bilan uch nafar bola;

ko'pi bilan yigirma besh nafar bola,shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan (ko'rish ambliopiyasiga chalingan, ko'zi g'ilay yoki nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan yoki autizimga chalingan) ko'pi bilan ikki nafar bola;

ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan ruhiy rivojlanishda kechikayotgan ko'pi bilan uch nafar bola;

ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan ko'pi bilan uch nafar bola.

Bugungi kunda globallashtirish,raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlaishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalaridagi kabi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda.Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalarda shaxsiy rivojlanishni ta'minlovchi,ijdkorlik,tanqidiy fikrlash,axborotni tahlil qilish va innovatsion g'oyalarni ilgari surishga qodir muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda.bunday sharoitda pedagoglardan ta'lim jarayonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llash,raqamli va axborot-kommunikatsiya muhitida samarali ishlay lish ko'nikmalariga va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy eta oladigan yuqori salohiyatli mutaxassis bo'lish zarurligini taqazo etmoqda.

Shu kabi chora taqbiirlar yuzasidan yurtimizga Reggio Emilia pedagogikasi kirib keldi. Reggio pedagogika-bu har bir bola o'ziga xos g'oyalar,fikrlar va qobiliyatlarga ega bo'lgan shaxs degan g'oyaga asoslangan ta'lim yondashuvidir.Reggio pedagogikasi erta bolalik ta'limiga inovatsion yondashuv bo'lib,ikkinchi jahon urushidan keyin italyaning Reggio Emelia shahrida paydo bo'lgan.Bugungi kunda Reggio emilia yondashuvi 145 dan ortiq mamlakatlar tomonidan qabul qilingan. Reggio Emilia pedagogikasi — bolalarning ijodiy salohiyatini ochuvchi yondashuv

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning tabiiy qiziqishi, erkin fikrlashi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Shu maqsadda “Reggio Emilia” pedagogik yondashuvi asosida tayyorlangan metodik qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglariga taqdim etildi.

Ushbu qo'llanma:

bolaning ijodkorlik, muloqot va tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi; pedagoglarga bolaning tashabbusini qo'llab-quvvatlash, erkin muhit yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi;

o'yin, san'at, muloqot va tajriba orqali o'rganish jarayonini yo'lga qo'yish bo'yicha misollarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari, o'rinbosarlar, psixologlari va tarbiyachilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ta'lim muhitini bolalar markazida tashkil etishga yo'naltirilgan.

Reggio pedagogikasining asosiy g'oyalari:

*bola tug'ilganidan boshlab o'rganishga tayyor va o'z fikriga ega bo'ladi;

*o‘qituvchi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi emas, balki sherik, kuzatuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida bo‘lishi zarur;

* bola o‘zini ifodalashda nafaqat til, balki rasm, harakat, musiqa, o‘yin, loy, tabiiy materiallar kabi ko‘plab materiallardan foydalanishi darkor;

*muhit estetik, ochiq, tartibli va ijodiy bo‘lishi kerak;

* o‘quv materiallari esa bolani mustaqil kashf qilishga undashi maqsadga muvofiq bo‘lishi zarur

Reggio pedagogikasining bolalar rivojlanishidagi afzalliklari:

*Mustaqillik va mas‘uliyatni rivojlantirish. Bolalar qaror qabul qilishni, o‘z harakatlari uchun mas‘uliyatni o‘z zimmalariga olishni va vaqtlarini boshqarishni o‘rganadilar. Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish.

* Ijodkorlik tufayli bolalar o‘z tasavvurlarini rivojlantiradilar va o‘z fikrini erkin bildirishni o‘rganadilar.

* Ijtimoiy ko‘nikmalar. Loyihalarni bajarishda hamkorlikda ishlash, muloqot ko‘nikmalari, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Hissiy rivojlanish. Bolaning hissiy ehtiyojlariga e‘tibor berish empatiya, o‘ziga bo‘lgan ishonch va atrofdagi dunyoga ijobiy munosabatda bo‘lishni rivojlantiradi.

Alohida ta‘lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun san‘at va hunarmandchilik faoliyatlari nafaqat ijodiy o‘sishni, balki psixomotor, hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ham juda muhimdir. Alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan san‘at va hunarmandchilik faoliyatida quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

1) oddiy, takrorlanuvchi harakatlarga asoslangan, tushunarli va bajarish oson bo‘lishi;

2) ko‘p bosqichli bo‘lmagan holatda bola diqqatini jamlay oladigan qilib, tez charchaydigan bolalar ham inobatga olinishi;

3) Sensor rivojlanishga ham alohida ahamiyat berib, turli materiallarni ushlash, kesish, yopishtirish orqali sezgi organlari simulyatsiya qilish;

4) har bir bola o‘z imkoniyatiga qarab qatnasha olishini inobatga olish (masalan, tayyor shakllarni yopishtirish yoki rang berish bilan chegaralash mumkin);

5) o‘ziga ishonchni oshirish va kommunikatsion rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish;

6) ekologik xavfsiz materiallardan foydalangan holda tashkil qilish va shu orqali sog‘liqni saqlash talablariga javob berishi zarur.

Sensor mashg‘ulotlar: Turli xil materiallarning tuzilishi, og‘irligi va harorati bolalarning sensor sezuvchanligini rivojlantiradi.

Ijodiy ifoda: Chiqindi materiallardan foydalanish bolalarga o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini turli yo‘llar bilan ifoda etish imkonini beradi.

Atrof-muhitga hurmat: Qayta ishlash va chiqindilardan foydalanish orqali bolalarda ekologik ong va atrof-muhitga nisbatan hurmat shakllanadi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo’lgan bolalarga reggio emilia bo’yicha quidagi ta’limiy faoliyatlarni tavsiya etamiz:

- “Men kimman?” (Identifikatsiya va ifoda). Maqsad bolani o’zini tanitish, his-tuyg’ularini ifoda qilishga o’rgatishdir. Zaruriy vositalar: Rasm qog’ozlari, bo’yoqlar, plastilin, oynalar. Bola o’zini rasm yoki plastilin orqali tasvirlaydi. So’ng o’z ismini va qanday his qilayotganini aytadi yoki imo-ishora bilan bildiradi. Rasm va bola izohi suratga olinadi.

- “Mening hislarim” (Sensor mashg’ulot). Maqsad alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarda sezgi organ lari orqali dunyoni idrok etishini rivojlantirishdir. Zaruriy vositalar: To’qimalar (yumshoq, qattiq, silliq), qum, suv, tovushli materiallar. Bolalar ko’zini yumib, turli materiallarni ushlab ko’rishadi. O’z his-tuyg’ularini rasm yoki og’zaki (yoki imo) tarzda ifoda qilishadi. Bolalarning ifodalari yozib olinadi yoki audio tarzda saqlanadi

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun moslashtirilgan san’at va hunarmandchilik faoliyatlari:

- Plastik suv idishidan tayyorlanadigan qo’l mehnati — “Shovqinli qo’l” o’yinchog’ini yasash. Maqsad: Sensor-motorik rivojlanish (tovush-harakat uyg’unligi), ijodiy ifoda, qo’l mushaklarini mustahkamlash, o’z mehnatidan zavqlanish hissini shakllantirishdir. Ota-onalarga farzandingiz bilan birgalikda qiziqarli va rang-barang ovoz chiqaruvchi o’yinchoqlar tayyorlashi uchun tavsiya etiladi. Bu faoliyat ularning ijodkorligi, mayda qo’l motorikasi va harakat muvofiqligini rivojlantirishga yordam beradi. Eng muhimi - bu ishni bajarish juda oson va zavqli bo’ladi.

Kerak bo’ladigan materiallar: fevicol MR (boshqa yelim), rangeela tempera bo’yoqlari, rangli grafik qog’ozlari, tasma (lenta), yog’och munchoqlar, bo’sh plastik suv idishi, qaychi.

O’yinchoqni yasash yo’riqnomasi: 1. Idishni tayyorlash. Plastik suv idishini ichini yaxshilab yuving va quriting. Agar yorlig’i bo’lsa, olib tashlang. 2. Ichki qismini to’ldirish. Idish ichiga yog’och, mayda tugmalar, yoki rattling (shovqin chiqaruvchi) toshlar soling. Juda ko’p solmang — idish silkiganda ohangli tovush chiqishi kerak. 3. Idish og’zini yopish. Qopqog’ini mahkam yoping. Bola xavfsizligi uchun qopqoqni yelim bilan mustahkamlab yopishtiring. 4. Bezatish. Idish tashqi tomonini rangli grafik qog’ozlar bilan o’rash yoki tempera bo’yoqlar bilan bo’yash mumkin. Stikerlar, tasma, yoki iplar bilan ham bezash mumkin (masalan, halqa shaklida bog’lash). Bola o’z ismini yozib qo’yishi mumkin – shaxsiylashtirish uni xursand qiladi. 5. Tajriba va o’yin. Bola o’yinchoqni silkitib, tovush chiqarishini sinab ko’riladi. Bu faoliyatda bola tovush, harakat va nazoratni birgalikda o’rganadi

Reggio Emilia pedagogikasi – bolalarga shaxs sifatida yondashuvchi, uning tug’ma qobiliyatlari, ijodkorligi va qobiliyatlarini tan oluvchi zamonaviy yondashuvdir. Bu pedagogika, ayniqsa, uzluksiz ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u har bir bosqichda bolalarning rivojlanishiga mos moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishni taqozo

etadi. Uzlüksiz ta’limda Reggio yondashuvi pedagogdan faqat bilim beruvchilikni emas, balki tinglovchi, kuzatuvchi, yo’naltiruvchi va hamkor bo’lishni talab etadi. Peda goglar bolalarning har bir ifoda shaklini qadrlashi, ularning qiziqishlarini inobatga olib loyihalar asosida ta’lim tashkil etishi zarur. Bunday yondashuv bolalarning mustaqilligi, ijtimoiylashuvi, o’z fikrini erkin ifoda eta olishi va hayotiy ko’nikma larni shakllantirishga xizmat qiladi. Reggio yondashuvi ota-onalar, muhit va pedagoglar o’rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytiradi. Bu uzluksiz ta’lim tizimida ta’limiy jarayonni to’laqonli, tizimli va izchil qilishga yordam beradi. Shunday ekan, uzluksiz ta’limda Reggio pedagogikasini qo’llash – bu nafaqat o’quv dasturlarini boyitish, balki har bir bolaga hurmat bilan yondashadigan, uning indi vidual salohiyatini to’liq ochib bera oladigan ta’lim madaniyatini shakllantirishdir. Bu esa zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beruvchi, ongli, faol va ijodkor avlodni tarbiyalashning ishonchli yo’lidir.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. U barcha bolalarga, ularning individual imkoniyat va ehtiyojlaridan qat’i nazar, teng ta’lim olish imkonini yaratadi. Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, Reggio Emilia pedagogikasining ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv bolalarning erkin fikrlashi, ijodkorligi va faol ishtirokini qo’llab-quvvatlaydi. Shuningdek, inklyuziv ta’limni rivojlantirishda pedagoglarning malakasini oshirish, ta’lim muhitini moslashtirish va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida qator islohotlar olib borilmoqda jumladan, Qo’qon Davlat Universitetida ham “Ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarning farzandlari uchun korreksion xizmatlar” markazi o’z faoliyatini olib bormoqda. Bu kabi tadbirlarni kengaytirgan holda nafaqat shahar balki, tumanlarda ham ushbu markazlar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni. T., “O’zbekiston”, 2020-yil 23-sentabr.
2. O’zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida” Qonuni 595-sonli qonun. 2019 yil 22-oktyabr.
3. O’zbekiston respublikasi Prezidentining Farmoni. Pf-152
4. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi (takomillashtirilgan), Toshkent 2022-yil
5. <https://evokeearlylearning.com.au/12-principles-of-the-reggio-emilia-educational-approach/>
6. <https://reggioemilia.com>
7. <https://nido.edu.au/news/reggio>
8. <https://www.ascd.org/el/articles/how-reggio-emilia-encourages-inclusion>